

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

Iyul №7, 2026

Агробизнес, наука и
технология

AGROBIZNES FAN VA TEXNOLOGIYALAR

Agribusiness, science and
technology

№ 083688



ISSN:
3060-5245

Toshkent-2026

Platform &
workflow by
OJS / PKP

BOSH MUHARRIR

Oblomuradov Narzullo Naimovich – i.f.d. (DSc), professor.

Bosh muharrir o'rinbosarlari:

Islamov Soxib Yaxshibekovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Sultonov Kamoliddin Sadriddinovich – q.x.f.d. (DSc), professor.

Farmonov To'liqin Xayitmurodovich – i.f.d. (DSc), professor.

Muharrir:

Beglayev Uchqun Xurramovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent.

Tahrir hay'atining xalqaro a'zolari:

Kusainov Xalel Xaymullayevich – i.f.d. professor (Qozog'iston davlat texnologiya universiteti)

Vilija Aleknevičienė – i.f.d. professor (Universitet Vitovta Velikogo)

Gilbert Ludwig – professor, (Jamk University of Applied Sciences)

Bobojonov Ixtiyor Baxtiyorovich – i.f.d. professor (Germaniyaning Leybnits nomidagi Markaziy Osiyoda qishloq xo'jaligini rivojlantirish instituti (IAMO))

Daiva Makutenė – professor, (Vitautas Magnus universiteti, Litva)

Xaitboyeva Nargiza Alikulovna – i.f.d. dotsent (Tojikiston davlat huquq, biznes va siyosat universiteti)

Tahrir hay'ati:**08.00.00-Iqtisodiyot fanlari:**

Gulyamov Saidasror Saidaxmedovich – i.f.d. (DSc), professor;

Saidov Muxammad-Ali Xakimovich – i.f.d. (DSc), professor;

Rustamova Iroda Baxramjanovna – i.f.d. (DSc), professor;

Ochilov Ilhom Sayitqulovich – i.f.d. (DSc), professor;

Askarov Nazimjon Niyozovich – i.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Altinbek Yangibayevich – i.f.d. (DSc), professor;

Boltayev Abror Sayitmuradovich – i.f.d. (DSc), dotsent;

Abduvasikov Abduaziz Abdulazizovich – i.f.n. professor;

Mamadiyarov Dilshad Uralovich – i.f.n. dotsent;

Achilov Mashrab Ulug'bekovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Galimova Feryuza Rafikovna – i.f.n. dotsent;

Odilova Dilnozaxon Barnayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Yangiboyev Dilshod G'ulomovich – i.f.f.d. (PhD);

Saidova Dildora Nurmatovna – i.f.n. dotsent;

Dexkanova Nilufar Sagdullayevna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Roziqov Jahongir Mustaqim o'g'li – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Boltayev Nurali Shiramatovich – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Ibragimova Madina Ismoilovna – i.f.f.d. (PhD), dotsent;

Javlijev Nuriddin Bektemir o'g'li – i.f.f.d. (PhD).

06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari:

Shokirov Alisher Djuraboyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Mardanov Husniddin Xolbozorovich – q.x.f.d. (DSc);

Abdiyev Fozil Rashidovich – q.x.f.d. (DSc);

Sattorov Maqsud Axtamovich – q.x.f.d. (DSc);

Yuldashov Nurbek Ergashovich – v.f.d. (DSc);

Xalimzayev Dilmurad Kamilovich – q.x.f.d. (DSc), dotsent;

Namazov Ixtiyor Choriyevich – q.x.f.d. (DSc), professor;

Eshonqulov Jamoliddin Saporboy o'g'li – q.x.f.d. (DSc), professor;

Abdullayev Anvar Kodirullayevich – b.f.n., katta ilmiy xodim;

Atabayev Ma'ruf Maxmudovich – q.x.f.n. professor;

Safarov Asqar Asadullayevich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Mustafakulov Davron Mamatqulovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Kasimov Botir Sadriddinovich – q.x.f.f.d. (PhD);

Akramov Umidilla Ikramdjanovich – q.x.f.n. dotsent;

Elboboyev Abdug'ani Shuxrat o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Muxammadov Yo'ldoshbek Akmal o'g'li – q.x.f.f.d. (PhD);

Maxmudova Shaxnoza Abdufattaxovna – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent;

Idrisov Xusanjon Abdujabborovich – q.x.f.f.d. (PhD), dotsent.

MUASSIS

Toshkent davlat agrar
universiteti

ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

Manzil: Toshkent viloyati, Qibray tumani, Universitet ko'chasi, 2-uy.

Jurnalning telegram manzili:

t.me/agrobiznes_elektronjurnal

E-mail: licht-1989@mail.ru

Jurnalning rasmiy sayti:

<https://www.agrobiznesjournal.uz>

Tel: +(998) 93 439 30 00

Jurnalning ilmiyligi:

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 30.11.2024-yildagi
№364/5-sonli qarori bilan
08.00.00-Iqtisodiyot fanlari
bo'yicha, 08.05.2025-yildagi
№370/5-sonli qarori bilan
06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari
bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy
ilmiy natijalarini chop etish
tavsiya etilgan milliy ilmiy
nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.

Elektron nashr, 234-sahifa.
2026-yil, iyul.



MUNDARIJA

IQTISODIYOT FANLARI

MATRASULOVA FERUZA BAXODIROVNA

Sho'rlangan marginal yerlarda sholi yetishtirishning iqtisodiy va agroekologik jihatlari (Xorazm viloyati misolida).....9

KOZIMJONOV ABRORBEK

Suv ta'minot va hudud gaz ta'minot korxonalarida xalqaro standartlarga muvofiq daromad va xarajatlarni tan olish masalalari.....16

KALIMULLINA NARGIZA VLADIMIROVNA

Sanoat sohasida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish.....24

RAXMATULLAYEV JALOLIDDIN MUXIDDINOVICH

Davlat xaridlarini samarali tashkil etish orqali byudjet mablag'larini tejash yo'llari.....30

ISMAYLOV SIROJIDDIN ISOQOVICH

O'zbekistonda yuridik shaxslar tomonidan foyda solig'ini hisoblab chiqarish va to'lash tartibi.....42

TURGUNOV ABDULLOH QUDRATBEK O'G'LI

Korxona faoliyatining iqtisodiy samaradorligini baholashda foyda va rentabellik ko'rsatkichlari.....49

ABDUBOQIYEV MUXAMMAD SHAROFITDINOVICH

Efficiency indicators of financial management mechanisms in joint-stock companies.....55

ZOHIDOV JAMSHID BOTIRXONOVICH

Xizmat ko'rsatish korxona menejmentida axborot texnologiyalarini rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish.....63

ACHILOVA FIRUZA KURBANOVNA, PARDAYEV ORIFJON

CHARSHAMIYEVICH
Qashqadaryo viloyatida raqamli infratuzilma va sanoat ishlab chiqarishning hozirgi holati tahlili.....71

UMAROVA ROXILAXON XALILJON QIZI

Mahalla tizimida madaniy loyihalarni boshqarishning ijtimoiy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....80

ATABAYEVA KAROMAT RAJABOVNA

Demografik jarayonlarni o'rganishning nazariy asoslari.....88

URALOV FARRUH ABDURAZZOQOVICH

Hududiy klaster siyosatini takomillashtirish yo'nalishlari.....95

G'IYOSOV ILXOM KARIMOVICH

Korporativ boshqaruv mexanizmlarining qurilish korxonalarida strategik qarorlar qabul qilish jarayoniga ta'siri.....109

ANVAROVA LOBARXON SHERZOD QIZI

Sun'iy intellekt asosida strategik va operatsion boshqaruvni optimallashtirish mexanizmlari.....119





SAYIPOV BEGZOD RAHIMOVICH

Valyuta kursi barqarorligini ta'minlashda monetar siyosat vositalarining roli va uning mehnat bozori dinamikasiga ta'siri.....131

KARIMOV INOMJON ORTIKBAEVICH

Qurilish sanoati korxonalarida investitsiyalarni jalb qilish mexanizmini boshqarishning nazariy asoslarini takomillashtirish.....140

ERKAYEV AKROM NORMUXAMMADOVICH

Milliy iqtisodiyotni sanoatlashuvning nazariy evolyutsiyasi.....150

AXMEDOVA NILUFAR SHUHRATOVNA, RISBEKOVA DILFUZAXON

JALOLIDIN QIZI

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda hududiy jihatlar hamda davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlari.....163

SHARIPOV G'ULOMJON QARSHI O'G'LI

Yashil iqtisodiyot sharoitida hududiy boshqaruvning xorijiy tajribasi va O'zbekistonda qo'llash istiqbollari.....169

SAPAROV ILYOS XUDAYMURATOVICH

Jamoatchilik ishonchi va ijro mas'uliyati: «Tashabbusli byudjet»ning yangi bosqichdagi vazifalari.....179

MURTOZAYEVA DILNOZA BOBONIYOZ QIZI

O'zbekiston sharoitida oziq-ovqat bozori marketing tadqiqotlarini o'tkazishda raqamlashtirish jarayonining afzalliklari.....184

ТАДЖИЕВА САЙЁРАХОН УРАЛОВНА

Маркетинговая привлекательность Бухарской области и факторы её формирования.....193

G'OFUROV BEKZOD FAYZULLA O'G'LI

Davlat budjeti mablag'laridan foydalanishda moliyaviy nazoratni kuchaytirish yo'llari.....208

USMONOVA MOHIGUL MANSUR QIZI

Yashil iqtisodiyot va ayollar tadbirkorligi rivojlanishining nazariy-konseptual asoslari.....214

ESHQULOVA NASIBA NORMO'MINOVNA

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksportini diversifikatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari.....223

KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH

Mavsumiy mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarda samaradorlikni baholashning nazariy-uslubiy yondashuvlari.....234





MAVSUMIY MAHSULOT ISHLAB CHIQUARUVCHI KORXONALARDA SAMARADORLIKNI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY YONDASHUVLARI

KILICHEV ALISHER AKRAMOVICH

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

E-mail: alisherkilichev@mail.ru

ORCID: 0009-0004-2348-2054

Annotatsiya. Maqolada mavsumiy mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyati samaradorligini baholashning nazariy-uslubiy yondashuvlari tadqiq etilgan. Samaradorlik kategoriyasining iqtisodiy mazmuni ochib berilib, uni baholashning an'anaviy koeffitsiyentli, chegaraviy (DEA, SFA) va kompleks-strategik yondashuvlari qiyosiy tahlil qilingan. Mavsumiy ishlab chiqarish sharoitida yillik o'rtacha ko'rsatkichlarga asoslangan baholashning uslubiy cheklovlari asoslangan hamda samaradorlikni ishlab chiqarish siklining bosqichlari kesimida ikki darajali baholash yondashuvi taklif etilgan.

Kalit so'zlar: samaradorlik, rentabellik, mavsumiylik, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish, DEA, stoxastik chegaraviy tahlil, baholash metodikasi, mavsumiy sikl.

Аннотация. В статье рассматриваются теоретические и методологические подходы к оценке эффективности сезонных производственных предприятий. Раскрывается экономическое содержание категории эффективности, проводится сравнительный анализ традиционного коэффицентного, граничного (DEA, SFA) и комплексно-стратегического подходов к ее оценке. Обосновываются методологические ограничения оценки, основанной на среднегодовых значениях в условиях сезонного производства, и предлагается двухуровневый подход к оценке эффективности на этапах производственного цикла.

Ключевые слова: эффективность, рентабельность, сезонность, использование производственных мощностей, DEA, стохастический анализ границ эффективности, методология оценки, сезонный цикл.

Abstract. The article examines theoretical and methodological approaches to assessing the efficiency of enterprises producing seasonal products. The economic content of the efficiency category is revealed, and a comparative analysis of the traditional ratio-based, frontier (DEA, SFA) and integrated strategic approaches is carried out. The methodological limitations of assessment based on annual average indicators under seasonal production are substantiated, and a two-level approach to efficiency assessment across the stages of the production cycle is proposed.

Keywords: efficiency, profitability, seasonality, capacity utilization, DEA, stochastic frontier analysis, assessment methodology, seasonal cycle.

KIRISH

Iqtisodiy resurslar cheklanganligi sharoitida samaradorlik korxona faoliyatini baholashning markaziy mezoni hisoblanadi. Mavsumiy mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarda esa samaradorlikni o'lchash alohida uslubiy murakkablikka ega: ishlab chiqarish quvvatlari yilning ma'lum davrlarida to'liq, boshqa davrlarda qisman band bo'ladi yoki umuman to'xtab turadi; resurslar sarfi va natijalar vaqt bo'yicha mos kelmaydi; yillik yakunlovchi ko'rsatkichlar esa ana shu ichki davriylikni "tekislab" yuboradi. Oqibatda boshqaruv qarorlari uchun asos bo'ladigan baholash natijalari korxonaning haqiqiy imkoniyatlari va zaxiralarini to'liq aks ettirmaydi.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va sanoat korxonalari raqobatbardoshligini oshirish vazifalari samaradorlikni baholashning ilmiy





asoslangan, tarmoq xususiyatlarini hisobga oluvchi metodikalarini talab etadi. Mazkur maqolaning maqsadi — samaradorlikni baholashga oid nazariy-uslubiy yondashuvlarni tizimlashtirish hamda ularning mavsumiy ishlab chiqarish sharoitiga moslashuvini baholash asosida takomillashtirilgan baholash yondashuvini asoslashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Samaradorlikni o'lchashning zamonaviy nazariyasi M.Farrelning fundamental ishidan boshlanadi: u texnik va taqsimot samaradorligini farqlab, samaradorlikni ishlab chiqarish imkoniyatlari chegarasiga nisbatan o'lchash g'oyasini ilgari surgan [1]. Ushbu g'oya keyinchalik ikki yirik uslubiy yo'nalishga asos bo'ldi: A.Charns, V.Kuper va E.Rods ishlab chiqqan ma'lumotlarni qamrab oluvchi tahlil (Data Envelopment Analysis – DEA) noparametrik usuli [2] hamda D.Aygnier, K.Lovell va P.Shmidt [3] va bir vaqtda V.Meuzen va J. van den Bruk [4] tomonidan taklif etilgan stoxastik chegaraviy tahlil (Stochastic Frontier Analysis – SFA). Ularning amaliy qo'llanilishi T.Koelli va hammualliflarning ishlarida tizimlashtirilgan [5]. Strategik boshqaruv yo'nalishida R.Kaplan va D.Nortonning mutanosib ko'rsatkichlar tizimi (Balanced Scorecard) samaradorlikni faqat moliyaviy emas, balki mijozlar, ichki jarayonlar va rivojlanish istiqbollari kesimida baholashni asoslaydi [6].

An'anaviy tahlil maktabida samaradorlik rentabellik ko'rsatkichlari, resurs qaytimi va xarajatlar darajasi orqali baholanadi; ushbu yondashuv A.D.Sheremet[7], G.V.Saviskaya [8] ishlarida atroflicha rivojlantirilgan. Milliy iqtisodiy adabiyotda korxonalar moliyaviy natijalari va ularni baholash masalalari A.V.Vahobov va T.S.Malikov kabi olimlar ishlarida yoritilgan [9]. Biroq tahlil shuni ko'rsatadiki, mavjud tadqiqotlarda samaradorlikni baholash, qoida tariqasida, yillik davr kesimida olib boriladi; ishlab chiqarish faolligining yil ichidagi davriy tebranishi baholash metodikasiga jiddiy ta'sir etuvchi omil sifatida maxsus tadqiq etilmagan. Mazkur uslubiy bo'shliq ushbu tadqiqotning predmetini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda qiyosiy tahlil, tizimlashtirish va tasniflash, mantiqiy umumlashtirish hamda uslubiy tanqid usullaridan foydalanildi. Baholash yondashuvlari uchta mezon — axborot bazasi, o'lchash usuli va boshqaruv qarorlariga yo'naltirilganlik bo'yicha qiyoslandi; ularning mavsumiy ishlab chiqarish sharoitiga moslashuvi alohida baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Samaradorlik kategoriyasini talqin etishda “natija–xarajat” nisbatiga asoslangan iqtisodiy mazmun umume'tirof etilgan bo'lsa-da, uni o'lchashga yondashuvlar sezilarli farqlanadi. Tadqiqotimizda ularni uchta guruhga birlashtirdik. Birinchi guruh — an'anaviy koeffitsiyentli yondashuv: rentabellik ko'rsatkichlari (aktivlar, o'z kapitali, sotuv rentabelligi), resurs qaytimi va xarajat





sig'imi orqali baholash. Uning afzalligi — hisoblashning soddaligi va axborotning moliyaviy hisobotdan bevosita olinishi; cheklovi — natijaning omillarga bog'liqligini va korxonaning potensial imkoniyatlarga nisbatan holatini ko'rsatmasligi. Ikkinchi guruh — chegaraviy usullar (DEA, SFA): samaradorlik eng yaxshi amaliyot chegarasiga nisbatan nisbiy ko'rsatkich sifatida o'lchanadi, bu korxonalarni o'zaro qiyoslash va zaxiralarni miqdoriy baholash imkonini beradi; cheklovi — ma'lumotlarga yuqori talabchanlik va natijalarning tanlanma tarkibiga sezgirligi. Uchinchi guruh — kompleks-strategik yondashuvlar (mutanosib ko'rsatkichlar tizimi, KPI tizimlari): samaradorlik strategik maqsadlarga erishish darajasi orqali baholanadi; cheklovi — subyektivlik unsurlari va moliyaviy baholash bilan bog'lanishning murakkabligi.


Mavsumiy ishlab chiqarish sharoitida yuqoridagi yondashuvlarning barchasi umumiy uslubiy muammoga duch keladi: ular, odatda, yillik o'rtacha yoki yil yakuni ma'lumotlariga tayanadi. Vaholanki, mavsumiy korxonada yil davomida, mohiyatan, turli "iqtisodiy rejimlar" almashinadi: zaxira to'plash davrida xarajatlar jamlanadi, natija esa hali shakllanmaydi; faol ishlab chiqarish va sotuv davrida quvvatlardan foydalanish va rentabellik eng yuqori darajaga chiqadi; mavsumlararo davrda doimiy xarajatlar natijasiz davom etadi. Ushbu rejimlarni yillik o'rtacha ko'rsatkichda "aralashtirish" kamida uchta tizimli xatolikka olib keladi: birinchidan, quvvatlardan foydalanish darajasi pasaytirib ko'rsatiladi va asossiz "samarasizlik" qayd etiladi; ikkinchidan, turli mavsumiy profilga ega korxonalarni qiyoslash nokorrektlashadi; uchinchidan, samarasizlikning haqiqiy manbai — u texnologik zaiflikmi yoki mavsumiy to'xtalishlarning tabiiy oqibatimi — farqlanmaydi.

Ushbu muammoni hal etish uchun samaradorlikni ikki darajada baholash yondashuvini taklif etamiz. Birinchi daraja — sikl ichi samaradorligi: ishlab chiqarish siklining har bir bosqichi (zaxira to'plash, faol ishlab chiqarish, sotuv, mavsumlararo davr) uchun o'ziga xos ko'rsatkichlar tizimi qo'llanadi — faol davrda quvvatlardan foydalanish va marjinal rentabellik, zaxira davrida zaxiralar aylanishi va saqlash xarajatlari samaradorligi, mavsumlararo davrda doimiy xarajatlarni qoplash darajasi. Ikkinchi daraja — to'liq sikl samaradorligi: yillik natija to'liq mavsumiy siklga nisbatan, shu jumladan chegaraviy usullar yordamida, lekin mavsumiy profili o'xshash korxonalar tanlanmasida baholanadi. Bunday ikki darajali yondashuv, bir tomondan, bosqichlararo zaxiralarni aniqlash, ikkinchi tomondan, korxonalarni xolis qiyoslash imkonini beradi hamda moliyaviy barqarorlikni mavsumiy sikl doirasida baholash yondashuvi bilan uslubiy yaxlitlikni ta'minlaydi.

1-rasmda mavsumiy mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarda samaradorlikni baholashning nazariy-uslubiy yondashuvlari kompleks tarzda yoritilgan. Rasm tahlili shuni ko'rsatadiki, mavsumiy ishlab chiqarish korxonalari faoliyatini baholashda korxonaning ichki resurslari bilan bir qatorda tashqi muhit omillari, ishlab chiqarishning mavsumiyligi va bozor talabining o'zgaruvchanligi ham hisobga olinishi zarur. Shu sababli samaradorlikni baholash oddiy moliyaviy



ko'rsatkichlar bilan cheklanmay, tizimli va kompleks yondashuv asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.



Manba: muallif ishlanmasi.

1-rasm Mavsumiy mahsulot ishlab chiquvchi korxonalarda samaradorlikni baholashning nazariy-uslubiy asoslari

Rasmning chap qismida mavsumiy ishlab chiqarishning asosiy xususiyatlari keltirilgan bo'lib, ularga xomashyo va mahsulot hajmining mavsumiy tebranishi, ishlab chiqarish jarayonining yil davomida notekis taqsimlanishi, tabiiy-iqlim omillariga bog'liqlik, bozor talabining mavsumlar bo'yicha o'zgarishi hamda saqlash va logistika xarajatlarining mavsumiy xarakterga egaligi kiradi. Mazkur omillar korxona faoliyatining iqtisodiy natijalariga bevosita ta'sir ko'rsatadi va samaradorlikni baholash metodikasida alohida e'tibor talab qiladi.

Rasmning markaziy qismida samaradorlikni baholashning beshta asosiy uslubiy yondashuvi – tizimli, ko'rsatkichlar, taqqoslama, ekonometrik hamda integral (kompleks) yondashuvlar aks ettirilgan. Tizimli yondashuv korxona faoliyatini yagona iqtisodiy tizim sifatida baholash imkonini bersa, ko'rsatkichlar yondashuvi rentabellik, mehnat unumdorligi, tannarx va sof foyda kabi iqtisodiy ko'rsatkichlar orqali natijadorlikni aniqlashga xizmat qiladi. Taqqoslama yondashuvi korxona faoliyatini o'tgan davrlar yoki tarmoqdagi ilg'or korxonalar bilan solishtirish imkonini beradi. Ekonometrik yondashuv esa statistik modellar asosida mavsumiylilik va turli omillarning ta'sirini aniqlash hamda kelgusidagi natijalarni prognozlash imkoniyatini yaratadi. Integral yondashuv esa barcha



iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy ko'rsatkichlarni yagona tizimda umumlashtirib baholashni nazarda tutadi.

Rasmda samaradorlikni baholash bosqichlari ham ketma-ketlikda ko'rsatilgan. Dastlab ma'lumotlar yig'iladi va tizimlashtiriladi, keyin asosiy ko'rsatkichlar hisoblab chiqiladi, ularning tahlili va taqqoslanishi amalga oshiriladi, yakunda esa baholash natijalari asosida boshqaruv qarorlari va amaliy takliflar ishlab chiqiladi. Ushbu ketma-ketlik baholash jarayonining ilmiy asoslanganligini hamda natijalarning ishonchliligini ta'minlaydi.

Rasmning quyi qismida zamonaviy nazariy-uslubiy yondashuvlarni qo'llash natijasida erishiladigan asosiy iqtisodiy natijalar ifodalangan. Xususan, xarajatlar optimallashtiriladi, ishlab chiqarish samaradorligi oshadi, resurslardan foydalanish darajasi yaxshilanadi, korxonalarining raqobatbardoshligi kuchayadi hamda hududiy iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta'sir ko'rsatiladi. Bu esa korxonalarining uzoq muddatli moliyaviy barqarorligini ta'minlash va bozor sharoitida barqaror faoliyat yuritishiga xizmat qiladi.

Umuman olganda, 1-rasm mavsumiy mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalarda samaradorlikni baholash ko'p omilli va kompleks jarayon ekanligini ko'rsatadi. Unda iqtisodiy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda mavsumiylik omillari, resurslardan foydalanish darajasi, zamonaviy iqtisodiy tahlil usullari va prognozlash vositalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur nazariy-uslubiy yondashuvlarning amaliyotga joriy etilishi korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirish, boshqaruv qarorlarining sifatini yaxshilash hamda raqobatbardosh ishlab chiqarishni rivojlantirish uchun mustahkam ilmiy asos yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot quyidagi xulosalarni asosladi. Birinchidan, samaradorlikni baholashning an'anaviy, chegaraviy va kompleks-strategik yondashuvlari o'zaro raqobatlashuvchi emas, balki bir-birini to'ldiruvchi bo'lib, ularni tanlash baholash maqsadi va axborot bazasiga bog'liq. Ikkinchidan, mavsumiy ishlab chiqarish sharoitida yillik o'rtacha ko'rsatkichlarga asoslangan baholash tizimli xatoliklarga yo'l qo'yadi va boshqaruv qarorlari uchun yetarli asos bo'la olmaydi. Uchinchidan, samaradorlikni ishlab chiqarish siklining bosqichlari kesimida (sikl ichi) hamda to'liq sikl bo'yicha ikki darajada baholash taklif etildi; bunda har bir bosqich uchun o'ziga xos ko'rsatkichlar tizimi asoslandi. To'rtinchidan, taklif etilgan yondashuv keyingi tadqiqotlarda ekonometrik modellash — mavsumiy dekompozitsiya va panel ma'lumotlar tahlili yordamida miqdoriy rivojlantiriladi hamda O'zbekistonning mavsumiy mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalari ma'lumotlarida sinovdan o'tkaziladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Farrell M.J. The Measurement of Productive Efficiency // Journal of the Royal Statistical Society. Series A. – 1957. – Vol. 120, No. 3. – P. 253–290.





2. Charnes A., Cooper W.W., Rhodes E. Measuring the Efficiency of Decision Making Units // European Journal of Operational Research. – 1978. – Vol. 2, No. 6. – P. 429–444.
3. Aigner D., Lovell C.A.K., Schmidt P. Formulation and Estimation of Stochastic Frontier Production Function Models // Journal of Econometrics. – 1977. – Vol. 6, No. 1. – P. 21–37.
4. Meeusen W., van den Broeck J. Efficiency Estimation from Cobb-Douglas Production Functions with Composed Error // International Economic Review. – 1977. – Vol. 18, No. 2. – P. 435–444.
5. Coelli T.J., Rao D.S.P., O'Donnell C.J., Battese G.E. An Introduction to Efficiency and Productivity Analysis. 2nd ed. – New York: Springer, 2005.
6. Kaplan R.S., Norton D.P. The Balanced Scorecard – Measures that Drive Performance // Harvard Business Review. – 1992. – Vol. 70, No. 1. – P. 71–79.
7. Sheremet A.D. Kompleksnyy analiz xozyaystvennoy deyatelnosti. – M.: INFRA-M, 2017.
8. Saviskaya G.V. Analiz xozyaystvennoy deyatelnosti predpriyatiya. – M.: INFRA-M, 2020.
9. Vahobov A.V., Malikov T.S. Moliya: umumdavlat moliyasi. – T.: Iqtisod-Moliya, 2019.
10. Brigham E.F., Ehrhardt M.C. Financial Management: Theory and Practice. 16th ed. – Boston: Cengage Learning, 2020.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risidagi PF-158-son Farmoni.



2026-yil, iyul. №7-son.

Mas'ul muharrir: Beglayev Uchqun

Musahhih: Boltayev Nurali

Sahifalovchi va dizaynerlar: Normurodov Sarvar,
Sharipov Shoxruh

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul hisoblanadi. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqolalar, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: licht-1989@mail.ru

Jurnalning telegram manzili: t.me/agrobiznes_elektronjurnal

Telefon raqami: +998939018320, +998934393000

Jurnal rasmiy sayti: <https://www.agrobiznesjournal.uz>

"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 30.11.2024-yildagi №364/5-sonli qarori bilan 08.00.00-Iqtisodiyot fanlari bo'yicha, 08.05.2025-yildagi №370/5-sonli qarori bilan 06.00.00-Qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga kiritilgan.



"Agrobiznes, fan va texnologiyalar" ilmiy-amaliy elektron jurnali 2023-yil 23-maydan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669225** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №083688

**Manzilimiz: Toshkent viloyati, Qibray tumani,
Universitet ko'chasi, 2-uy**